

DINIY NUTQ VA MATNNING O‘ZBEK TILI FUNKSIONAL-STILISTIK TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI

Xudoynazarova M.I.

(TerDU, Lingvistika: o‘zbek tili magistratura mutaxassisligi magistranti),

Amanturdiyeva Sh.R.

(TerDU, f.f.n. (PhD), ilmiy rahbar)

ANNOTATION

This article provides basic information about the role of religious speech and text in the functional and stylistic system of the Uzbek language. It was written based on the results of a study conducted by linguists of the functional and stylistic system of the Uzbek language of religious speech and text.

KEYWORDS:

religious speech, extralinguistic factors, phonetic aspect, lexico-stylistic aspect, expressive-emotional aspect.

Ma’lumki, diniy matn uslubi o‘zbek tili funktsional uslublarining bir ko‘rinishi va u diniy-ma’rifiy soha vakillari tilida amal qiladigan alohida leksik-frazeologik, grammatik xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar dissertatsiyada ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy va so‘zlashuv uslublari bilan taqqoslangan holda yoritib berildi. Diniy matnlarni kuzatish unda o‘zbek tilida amalda bo‘lgan boshqa uslublarning elementlari ham uchray turishligini ko‘rsatdi. Ayni paytda, ular muayyan farqlarga ham ega. Masalan, Qur’on oyatlari va muborak hadislariga tayanilishi, undov so‘z va gaplar, ularning murojaat shakllari, ko‘chirma gaplarning hamda rivoyat qilinadi, deyiladi, deydilar, so‘radi(lar) fe’l shakllari faolligi ularni ilmiy matnlar uslubidan farqlasa, aniqlikka intilish, fikrni sodda, aniq va tushunarli tilda bayon qilish, emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘zlarning ishlatilishi me’yor sanalmasligi bu ikki matnning o‘xshash jihatlari bo‘lsa, namoz, azon aytilishi, nikohning rasmiylashtirilishi, kundalik besh vaqt namozning, janoza, taroveh, juma, hayit namozlarining o‘qilishi yoki umuman, va’zxonlik, qiroatxonlik kabi ibodatlar, diniy anjumanlar arabiy matn, oyat va duolarasosida ijro etilishi ularni o‘zbek tilining rasmiy matnlaridan farqlaydi.

Diniy nutq va matnlar uslubini belgilovchi ekstralingvistik omillari. Diniy matnlarning o‘z adresati borligi, bular – diniy e’tiqoddagi kishilar bo‘lishligi, matnning muayyan auditoriyaga mo‘ljallanganligi, bu auditoriya, asosan, masjidlar va xonaqohlar, diniy mazmundagi teleradio ko‘rsatuv va eshittirishlar, diniy marosimlar va suhbatlar ekanligi kabi o‘zbekcha diniy matnlarning faqat o‘zigagina xos bo‘lgan ekstralingvistik jihatlari aniqlandi.

Diniy matnlar mualliflari odatda din peshvolari bo‘lishadi. Ular diniy ta’limot sohasida maxsus bilim va tajribaga ega bo‘lgan ulamolardir. Ulamolarda odatda maxsus kiyimda – boshlariga salla o‘ragan va ustlariga xalat kiygan bo‘lishadi. Qonunda ular ana shu tartibda kiyinishi lozimligi belgilab qo‘yilgan. Mana shu sanab o‘tilgan ekstralingvistik omillar omma oldida chiqish qiluvchi ulamoning nutqiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi va uning samaradorligini belgilaydi.

Diniy matnlarning o‘ziga xosligini belgilovchi ekstralingvistik omillar, odatda, og‘zaki matnlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Diniy nutq jiddiy va vazmin nutqdir. Unda notiqning ehtirolarga berilib ketishi ma’qul ko‘rilmaydi, nojoiz so‘z va iboralar ishlatilmaydi. Nutq bir maromda, rasmiy ohangda ijro etiladi. Bu paytda o‘ziga xos ovoz toni (obrazi) yuzaga keladi. Ma’ruza jarayonida albatta hujjat va dalillarga tayanilgan holda nutq shakllantiriladi. Bu hujjat va dalillar Qur’oni Karim va sahih hadislar bo‘lib hisoblanadi.

Albatta, bu mo‘tabar manbalardan foydalanishning o‘z tartib-qoidolari bor. Masalan, Alloh yoki uning Rasuli nomlarini notiqalar o‘zlari istagan shaklda atayverishi diniy odob nuqtai nazaridan joiz emas. Ularning nomlari qat’iy qoida va tartib bilan tilga olinadi. Masalan, Alloh subhana va taolo, Muhammad sallolohu alayhi va sallam (ﷺ) kabi. Diniy nutqning yana bir nozik tomoni bor. Unda kitobiy nutqning publitsistik, badiiy uslublarga xos jihatlarini olib bo‘lmagani kabi, so‘zlashuv uslubining muomala-maishiy, oddiy nutq shakllaridan foydalanib bo‘lmaydi. Oraliq pozitsiya tutiladi. Mana shu ekstralingvistik shart-sharoitlar diniy matnlarni o‘zbek tilidagi boshqa funktsional uslublar me‘yorida jiddiy farqlaydi¹.

Biz mustaqillik yillarida qabul qilingan din sohasiga oid hujjatlarni ham diniy notiqlik san’atining rivojlanishida o‘ta muhim ekstralingvistik omillar sifatida qayd etishni istar edik. Mamlakatimizda olib borilayotgan diniy-ma’rifiy targ‘ibot islom dinining insonparvarlik mohiyatini ommaga tushuntirishda, turli ma’naviy tahdidlarning oldini olishda, «ommaviy madaniyat» ta’siridan yosh avlodni vosita bo‘lib qoladi. Bu omillar diniy matnlar uslubining o‘ziga xosligini keltirib chiqaradi.

O‘zbekcha diniy nutq va matnlarning fonetik va leksik-stilistik aspekti. Diniy matnning og‘zaki ko‘rinishi yaqqol namoyon bo‘ladigan ommabop auditoriya – juma namoziga to‘plangan jamoa yig‘inlarida qilinadigan amri ma’ruf namunasi eksperimental tadqiq etildi va bunda M.Gazieva tavsiya etgan dasturdan foydalanildi². «Ruhobod» masjidi imomi To‘lqin hoji Amirovning 30 minutlik ma’ruzasi audioyozuvi material vazifasini o‘tadi. Bir gap shaklidagi nutq fonetik manzarasining kompyuter yordamida olingan diagramm ko‘rinishi quyidagicha: Bu banda kim edi, Allohim!

Nutq muallifining talaffuz me‘yorlariga mumkin qadar amal qilganligi nutqning ayrim prosodik jihatlari haqida mulohaza yuritishga imkon yaratdi va bu holatlar matnda 20 marta qo‘llangan undalma – birodar so‘zining fonetik tahlili orqali ko‘rsatib berildi.

Yozma diniy nutq va matnlarning imloviy xususiyatlari. Keyingi yillarda mamlakatimizda diniy e’tiqod erkinligi qaror topganligi, islomiy ma’naviy-ma’rifiy asarlarning keng ko‘lamda o‘rganilayotgani va chop etilayotgani, ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgani tilimizda arabcha so‘zlarning, teonimik terminologiyaning faollashuvga olib kelganligi munosabati bilan o‘zbek tili imlosi va talaffuzida paydo bo‘lgan muammolar haqida so‘z yuritiladi. Masalan, o‘zbektilida shu paytga qadar Olloh-الله, Rahmon-نامرح, Rahim-ميرح, Rasul-لوسر tarzida yozilib kelinayotgan nomlar talaffuzida muayyan fonetik o‘zgarishlar, ya’ni o→a, a→o almashinuvi sodir bo‘lmoqda. Olloh - Alloh, Rahmon - Rohman, Rahim - Rohim, Rasul - Rosul tarzida yozilmoqda va talaffuz etilmoqda³.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida diniy matnlar yozilishi va talaffuzi bilan bog‘liq bo‘lgan bu kabi muammolarning mavjudligi ijobiy hodisa emas. Ushbu mazmundagi matnlarning chuqur ilmiy tahlili, imlosi va talaffuzi borasida beriladigan aniq amaliy tavsiyalargina bu muammolarning bartaraf etilishiga olib kelishi mumkin. Ularning bartaraf etilishiga tilimizning yashash qonuniyatlariga tayangan holda yondashish to‘g‘ri bo‘ladi, deb hisoblaymiz. Ammo bu qoidani hamma so‘zlarga ham tatbiq etish ma’qul emas. Masalan, imlo lug‘atlarimizda qayd etilgan voiz-ظعاو, imon-ناميا, lain-نيعل, qoim-مئاق, singari so‘zlarni voyiz, iymon, layin, qoyim tarzida yozish xatolikka olib kelmaydi, aksincha, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yana mulla-mullo singari so‘zlar borki, ular qo‘llanilishida uslubiy farqlar seziladi: Mulla Norqo‘zi hazil bilan uning alamini bosmoqchi bo‘ldi (A.Qahhor. «Mayiz yemagan xotin»). Valixon so‘fi: «O‘g‘lingiz mullo bo‘lsin», deb yuziga fотиha tortdi (A.Qahhor. «Valixon

¹ Amanturdieva Sh.R. “O‘zbek diniy matnining funktsional-stilistik tadqiqi”. -S.: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. 2020 y. 10-15 b.

² Gazieva M.M. Muloqot jarayonida prosodik vositalarning lingvopragmatik xususiyatlari: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)...diss. avtoref. – Toshkent, 2018.

³ Isomiddinov Z. Imloni bilmagan mullo bo‘ladimi? / «Hidoyat» jurnali, 2019 yil № 10, -B.26-27.

so'fi»). Misollardagi bu ikki variantning qiyoslanishi ularning birida (mulla) neytrallik (betaraflik), ikkinchisida (mullo) ekspressiv noziklik bor.

Diniy nutq va matnlarning leksik qatlamlari va lug'at tarkibi. Diniy matnlar lug'at tarkibidagi asosiy elementlar – diniy tushunchalarni anglatuvchi Allohga hamdu sano, Payg'ambarga salavot aytishda qo'llaniladigan so'z va jumlar, Qur'on oyatlari va hadislar tarkibidagi birliklar tadqiq etildi va bu lug'aviy birliklarning leksik-semantik tahlilini berishda «O'zbek tilining izohli lug'ati» tayanch manba qilib olindi. Diniy matnlarda qo'llanilgan so'zlar leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganildi:

-Alloh, din, mazhab kabi tushunchalar bilan bog'liq so'zlar: الله Alloh, ملا سلا alayhissalom, انبياء anbiyo;

-shariat bilan bog'liq so'zlar: اذن azon, امرى ما'ruf, رضى rasr; -diniy ijtimoiy nufuz, mansab, bajaradigan amallar bilan bog'liq so'zlar: ايلو avliyo, يلى vali, زاهد zahid, امام imom;

-diniy joy nomlarini ifodalovchi so'zlar: تيب مرحلا Baytul haram, تيب الله Baytulloh;

-diniy kitoblar, qog'oz bilan bog'liq so'zlar: زبور Zabur, ليجنا Injil, نوما'ى ا'مول noma'i a'mol, فوفا oyat, سورا sura;

-kiyim-kechaklarni ifodalovchi so'zlar: هاج joma, هلس salla; -g'ayb dunyosini ifodalovchi so'zlar: تاصرع arosat, شرع arsh;

-g'ayb mavjudotlarini bildiruvchi so'zlar: ازوز Azroil;

-diniy marosimlarni ifodalovchi so'zlar: مولود mavlud;

-his-tuyg'u, munosabat ifodalovchi so'zlar: ربك الله Allohu akbar, الحمد لله alhamdulillah, دمحا الله demoha, فاستاغ firilloh kabi.

Shuningdek, dissertatsiyada arabizmlar, forsizmlar, turkizmlar, yunon, lotin va boshqa tillarga mansub bo'lgan diniy so'zlar asosiy leksik qatlam sifatida tadqiq etildi va ular quyidagi tasnif asosida o'rganib chiqildi:

-diniy matnlarga xoslangan so'zlar: باروت barot, لائل ردىلا laylat ul-qadr, عىدب bid'at, bomdod, بوروبو buroq, واهدات vahdat, واهدونىyat, وىح vahiy;

-faqat bir ma'nosi bilan diniy matnlarga xoslangan so'zlar: avliyo. Izohli lug'atda uning to'rt ma'nosi berilgan⁴.

Valilar, e'tiqodli, dindor kishilar; aziz, muqaddas, Ollohga yaqin kishilar; ruhoniylar uning birlamchi ma'nosi. Karomat, bashorat qila oladigan, mo'jizalar ko'rsata oladigan odam; hech narsa bilan ishi yo'q, darveshsifat, darveshnamo odam esa keyingi ma'nolari.

-diniy matnlarga xos ma'nosi eskirgan va hozirda qo'llanilmayotgan yoki ma'nosi o'zgargan so'zlar: saqar, siyra, tahlil, tugun;

-ommalashib, tilimizning o'z so'zlariga aylangan leksik birliklar: رضى taqdir, رض خ xizir, شاطىش hayton, هاضح hazrat, halol, harom, هاقىق haqiqat;

-birikmali tartibda qo'llaniladigan diniy so'zlar: hamdu sano - انىث دمح

Ushbu dalillar diniy tushunchalarning asrlar davomida xalqimiz ma'rifiy olamiga singib ketganligi va tilimiz lug'at fondidan mustaham joy olganligini tasdiqlaydi.

Diniy nutq va matnlar leksikasining ekspressiv-emotsional jihatlari. Diniy matnlarga xos bo'lgan so'zlarning o'zbek tili lug'at tarkibiga singib bo'lgandan keyin sodir bo'lgan sifat o'zgarishlari o'rganildi. Bu elementlarda yuz bergan va asosan metaforizatsiya bilan bog'liq bo'lgan ma'no kengayishlari hamda ushbu leksemalarning semantik-stilistik va emotsional-ekspressiv xususiyatlari alhazar- رذخلا, bitilmoq- قاملىتىب, buzruk, darvesh, dargoh, jannat, jahannam, karomat, lain, lot-manot, malak, munojot, uzlat, shayton so'zlari misolida tahlil etildi.

Shu tarzda ishda o'zbek tili leksik tizimida diniy matnlarga xoslangan alohida til birliklari mavjudligi, ular aynan diniy sohaning lingvistik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi, diniy

⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati, 5 jildli, Birinchi jild. – Toshkent, 2006, -B.31-32.

tushunchalarning atamasi va ifodasi sifatida o'zbekcha matnlardan, milliy tafakkur olamidan mustahkam o'rin olganligi haqida xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Amonturdieva Sh. Лексический пласт узбекских религиозных текстов // International Scientific Journal ISJ Theoretical Applied Science – Philadelphia USA, 2020. -R.14-17. (№2. Impact Factor: 4,971)
2. Amonturdieva Sh. O'zbekcha diniy matn: funktsional-stilistik tadqiq muammolari // Samarqand davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi – Samarqand, 2019. -№ 2. –B.55-57. (10.00.00 №14).
3. Amonturdieva Sh. O'zbekcha diniy matnlar uslubini belgilovchi ekstralingvistik omillar // NamDU Ilmiy axborotnomasi – Namangan, 2020. № 4. –B. 351-358. (10.00.00. № 27).
4. Amonturdieva Sh. O'zbek diniy matnining fonetik xususiyatlari // Ilm sarchashmasi – Xorazm, 2020. № 6. –B..174-180. (10.00.00.№ 3).
5. Amonturdieva Sh. Religious style in uzbeklanguage // Turkistonning o'tmishi va buguni: tarix, madaniyat. Xalqaro ilmiy amaliy konferentsiya materiallari – Turkiston: Hoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro Qozoq-Turk universiteti, 2019. –B. 163-166.
6. Amonturdieva Sh. Mahmud Qoshqariyning «Devonu lug'otit-turk»asarida turkiy teologik atamalar // «Devonu lug'oti-t-turk»turkiy xalqlarning noyob yozma yodgorligi. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. – Toshkent, 2018. –B.141-146.
7. Amonturdieva Sh. O'zbek tilshunosligida matnni funktsional-uslubiy jihatdan o'rganish masalasi // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-nazariy konferentsiyasi materiallari – Toshkent, 2019. –B. 64-69.
8. Amonturdieva Sh. O'zbekcha diniy matnlarning leksikasiga oid ayrim mulohazalar // Termiz davlat universiteti professor-o'qituvchilarining 2018 yilgi ilmiy tadqiqot ishlari yakuniga bag'ishlangan an'anaviy ilmiy-amaliy konfrentsiyasi materillari. – Termiz, 2018. - B. 273-282.